



## ANDIJON VILOYATI TOG‘ VA TOG‘OLDI HUDUDNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Yuldashev Abbas Abdusattor o‘g‘li**

Andijon davlat universiteti magistranti

E-mail: yuldashevabbosbek134@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Andijon viloyatining tog‘ va tog‘oldi hududlariga xos geologik va geomorfologik xususiyatlar keng tahlil qilingan. Hududning reliefi, balandlik darajalari, tog‘ massivlari va ularning tarkibidagi jinslar tuzilmasi ilmiy asosda bayon etilgan. Tog‘li hududlarning shakllanishi va rivojlanishida paleozoy, mezozoy va kaynozoy davrlarida yuz bergan tektonik harakatlar hamda denudatsiya jarayonlarining o‘rni alohida ko‘rsatilgan. Shuningdek, tog‘oldi zonalarining balandligi, litologik tuzilmasi, yer maydonlarining holati va ularning geomorfologik o‘ziga xosligi ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan. Hududda yer resurslaridan foydalanish imkoniyatlari, tabiiy landshaftlarning shakllanish omillari va joylashuviga doir ma‘lumotlar umumlashtirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Andijon viloyati, tog‘ zonasi, tog‘oldi hududi, relef, geomorfologiya, paleozoy, tektonik harakat, denudatsiya, litologik tarkib, landshaft.

**Аннотация.** В статье дается подробный анализ геологических и геоморфологических особенностей, характерных для горных и предгорных районов Андижанской области. На научной основе описаны рельеф региона, его высоты, горные хребты и строение горных пород в их пределах. Освещена роль тектонических движений и денудационных процессов, происходивших в палеозое, мезозое и кайнозое, в формировании и развитии горных регионов. На основе научной литературы также освещаются высота, литологическое строение, условия рельефа и геоморфологические характеристики предгорных зон. Обобщены сведения о возможностях использования земельных ресурсов региона, факторах формирования природных ландшафтов и их размещении.

**Ключевые слова:** Андижанская область, горная зона, предгорная зона, рельеф, геоморфология, палеозой, тектонические движения, денудация, литологический состав, ландшафт.

**Annotation.** This article provides a comprehensive analysis of the geological and geomorphological features of the mountainous and foothill regions of Andijan region. The relief of the region, elevations, mountain ranges and the structure of the rocks in them are described on a scientific basis. The role of tectonic movements and denudation processes that occurred in the Paleozoic, Mesozoic and Cenozoic eras in the formation and development of mountainous regions is highlighted. The height, lithological structure of the foothill zones, the condition of the land areas and their geomorphological characteristics are also covered on the basis of scientific literature. Information on the possibilities of using land resources in the region, the factors of formation and location of natural landscapes is summarized.

**Key words:** Andijan region, mountain zone, foothill region, relief, geomorphology, Paleozoic, tectonic movement, denudation, lithological composition, landscape.



## KIRISH

Andijon viloyatining tog‘li zonasi janubiy, sharqiy va shimoliy qismlarini o‘rab olgan tog‘lar G‘arbiy Tyan-Shan tarkibidagi birinchi tartibli alp strukturasi elementlari bo‘lib, ular megaantiklinoriy va megasinklinoriylardan tashkil topgan. Andijon viloyati yer yuzasining tuzilishi O‘zbekistonning boshqa hududlari yer yuzasidan ancha farq qiladi, sababi Andijon viloyati Farg‘ona vodiysi (tektonik botig‘i) ning sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, hududning atrofini aylanasiga adirlıklar va past tog‘lar o‘rab turadi, aslida vodiyni janubdan Turkiston va Oloy, sharqdan Farg‘ona va Oto‘ynoqi, shimoldan Qoramozor tog‘ tizmalari, g‘arbdan Mo‘g‘ultog‘ o‘rab turishi Andijon reifining o‘ziga xos murakkabligini ko‘rsatadi. Sabab bu tog‘lardan tashqari past tog‘lar, jumladan, janubdan Qarachatir, Ortotoo, Ulug‘tog‘, Kyoksaroy, Kereliktog‘, Qirtoshtov, sharqda Qoratog‘ tog‘lari hamda tog‘oldi hududlarida shakllangan 1200 metr balandlikkacha bo‘lgan adir qatorlari janubdan Asaka, Marhamat, Buloqboshi, janubi-sharqda O‘ttizadir, sharqda Xonobod, shimolda Bozorqo‘rg‘on, Paxtaobod adirlari bilan o‘ralgan [2].

## ASOSIY QISM

Andijon viloyati yer yuzasi g‘arbdan sharqqa tomon ko‘tarilib boradi. Viloyatning eng g‘arbiy qismi hisoblangan Ulug‘nor tumani dengiz sathidan 400-406 metr balandlikda joylashgan bo‘lsa, sharqqa tomon ko‘tarilib, Baliqchi 414 metr, Bo‘ston, Oltinko‘l, Shahrixon tumanlari 424 metr, Izboskan, Paxtaobod tumanlari 444 metr, Asaka 472-659 metr, Marhamat 800-1200 metrgacha, Buloqboshi, Xo‘jaobod, Jalaquduq 801-1545 metrgacha, Qo‘rg‘ontepa 600-911-1350 metr, Andijon shahri va tumani 400-500 metr dengiz sathiga nisbatan balandda joylashgan.

Tog‘li hududlarning birlamchi relefi paleozoy erasidagi gersen orogenezida qadimgi strukturalar sifatida shakllandi. Mezozoy erasiga kelib birlamchi relyef shakllari kuchli denudatsiya jarayonlari tufayli yemirilib ketdi. Kaynozoy erasining alp orogenezi yangi tektonik harakatlar sifatida paleogenning oxiri va neogen davrlarida sodir bo‘lib denudatsiya tufayli yemirilib ketgan tog‘li hududlar relyefini qaytadan shakllantirdi. Shuning bilan birga tog‘li hududlarning relyefi daryo va soyliklarning faoliyati tufayli qayta ishlanib, chuqur erozion hududlarni hosil qildi [1].

Andijon viloyati tog‘li hududlari ham o‘rta va baland tog‘larning gipsometrik jihatdan muayyan tafovutlarini hosil qiladi. Bu tafovutlar ularning orografiyasida pog‘onali xususiyatlarni hosil qiladi. Andijon viloyatini janub tomondan Oloy tog‘lari, sharqdan va shimoli-sharqdan Farg‘ona va Sumsar tizmalari o‘rab turadi. Bu tog‘lar G‘arbiy Tyan-shan tog‘lar tizimiga kirib Farg‘ona vodiysini deyarli berk kotlovina holatini keltirib chiqaradi. Andijon viloyatini o‘rab olgan tog‘lar tarkibida uning janubiy va janubi-g‘arbiy qismida joylashgan [4]. Oloy tog‘lari mutloq balandliklari bo‘yicha baland tog‘lar o‘rtacha, balandlikdagi tog‘lar (2000-3000 m)ga ajralib turadi. Shunga ko‘ra bu yerda tog‘li hududlar: baland tog‘lar, o‘rtacha balandlikdagi tog‘lar va old tizmalar ajratiladi.



Baland tog'lar antiklinal strukturalarning baland ko'tarilmalarini, suvayrgich qismlarini tashkil etadi. Ularning maksimal balandligi 4000 m dan ortadi. Bu yerda daryo va muzliklar hosil qilgan erozion-denudatsion relef ko'rinishlari ham uchraydi va ularni gletsial, gletsial-erozion va denudatsion yuzalar tashkil etadi. Shuningdek, baland tog'li qismi relyefida karstlar, troglar, sirkalar kabi muzlik morfoskulptura shakllari uchraydi. Litologik tarkibiga ko'ra sillur va devon davrining ohaktoshli, qumtoshli, slanetsli, dolomitli va konglomeratli jinslaridan tashkil topgan. Andijon viloyati tog' oldi zonasida adirlar va baland tog' zonasida oralig'idagi hududlarni tashkil etib balandligi 800-1000 m gacha ko'tarilib boradi. Aksariyat holatlarda tog' oldi zonasiga adirlar zonasida yaqinlashib keladi va tektonik bukilmalar ularni ajratib turadi.

Tog' oldi zonasida Oloy va Farg'ona tizmalarining etaklarini tashkil etib, uncha katta bo'lmagan kengliklarda joylashgan. Ayniqsa, vodiyni janubiy qismidagi tog' oldi zonasida 30-40 km ni tashkil etadi. Shimoliy va shimoli-sharqiy hududlarda esa 30-50 km gacha masofalarni egallaydi. Tog' oldi zonasida alohida ko'tarilgan tog' massivlarining joylashganligi ularning tektonik rivojlanishi tog'li hududlardagi tektonik harakatlarga juda yaqinligi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra janubiy Farg'onadagi tog' oldi zonasida balandligi 1500 m dan 2000 m gacha bo'lgan Qatrontog' va G'uzon massivlari tektonik ko'tarilmalarni hosil qilgan. Bunday ko'tarilmalar relefida kuchli parchalanganlik, yonbag'ir yemirilish jarayonlarining faolligi, ularning etaklarida esa yemirilgan yirik va dag'al jinslarning tartibsiz joylashganligi ko'zga tashlanadi. Litologik tarkibiga ko'ra paleozoy erasining slanes va ohaktoshlari bilan birga mezozoy va to'rtlamchi davrning konglomeratli va shag'alli jinslari asosiy o'rin egallaydi [3].

Farg'ona vodiysining shimoliy qismida tog' oldi zonasida uncha katta bo'lmagan maydonlarni egallab Chotqol tog'larining janubiy etaklarigacha cho'zilgan, lekin bu hudud boshqa tog' oldi hududlariga nisbatan kichikroq maydonni egallaydi. Hududning mutloq balandligi 1000-1500 m gacha ko'tarilib, relefi birmuncha kuchli parchalangan. Hududning litologik tarkibida denudatsiya tufayli hosil bo'lgan mayda donali qoplama jinslar, shag'al va konglomeratli jinslardan tashqari yassi yuzalarda lyoss va lyossimon suglinkalar ishtirok etadi. Ayniqsa, lyoss va lyossimon jinslar hududning 60 % dan ortiq maydonini egallab olgan [1].

Andijon viloyatining janubi-sharqiy hududlari Oloy-Farg'ona tizmalari etaklarini egallab olgan. Oloy tizmalari etaklaridagi tog' oldi hududi Aravansoy va Oqbo'ra soyliklarining oralig'idagi baland va qiya tekisliklarni egallab, alohida ko'tarilgan tog' massivlari ham uchraydi. Masalan, Ulug'tog' massivi 1300 m dan baland ko'tarilgan janubi-sharqida Chilustun, undan sharqroqda Qirtoshtau massivlari ko'tarilgan bo'lib, balandligi 1200 m dan ortadi. Tog' massivlari kuchli denudatsiyaga uchragan, litologik tarkibi asosan paleozoyning devon davri kristallashgan ohaktoshlari va metamorfik slanetslaridan iborat [3].

### **XULOSA**

Andijon viloyati tabiiy geografik joylashuvining o'ziga xosligi yer resurslari tarkibi va undan foydalanishning turli-tumanligi bilan xarakterlanadi. Viloyat



hududida joylashgan tumanlar tog‘, tog‘oldi va adir yerlari sifatida tavsiflanishi sababli ularning yer maydonlarining aksariyat qismini tog‘oldi va tog‘ landshaftlari tashkil qiladi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Абдуллаев О. Фарғона водийси. Наманган нашрети. 2000.
2. Абдулкасимов А.А. Физико-географические районы Ферганской котловины //Научн.зап.Воронеж. Отд.Геогр.общ.СССР.-Воронеж, 1963.
3. Мамажонов М. Алиев Х. Андижон географияси (Андижон вилояти табиий ва иқтисодий-ижтимоий географияси) /2022.
4. Эшбоев Р.Е. Геология, геоморфология ва тупроқшунослик асослари. -Т.: 2002.

